

**Murodullayev Temurbek Abdulla o'g'li**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti  
“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada barkamol shaxsni shakllantirish jarayonida oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamkorligining ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shaxs tarbiyasining asosiy omillari sifatida oila muhiti, ta'lim tizimi hamda ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi yoritilib, ularning yosh avlod ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasida uch tomonlama hamkorlikni kuchaytirishning dolzarb masalalari va istiqboldagi vazifalar ilmiy asosda bayon etilgan.

**Kalit so'zlar**

barkamol shaxs, oila, ta'lim, jamiyat, tarbiya, ma'naviyat, yoshlar, hamkorlik, fuqarolik mas'uliyati, milliy qadriyatlar.

**Аннотация**

Вданной статье анализируется значение сотрудничества семьи, образовательных учреждений и общества в формировании гармонично развитой личности. Раскрываются роль семейного воспитания, системы образования и социальных институтов в духовно-нравственном развитии молодежи. Особое внимание уделяется актуальным вопросам укрепления взаимодействия семьи, школы и общества в условиях глобализации.

**Ключевые слова**

гармонично развитая личность, семья, образование, общество, воспитание, духовность, молодежь, сотрудничество, гражданская ответственность, национальные ценности.

**Annotation**

This article analyzes the importance of cooperation between family, educational institutions, and society in shaping a well-rounded individual. It examines the role of family upbringing, the education system, and social institutions in the spiritual and moral development of young people. Particular attention is given to strengthening collaboration among family, education, and society in the context of globalization.

**Keywords**

well-rounded personality, family, education, society, upbringing, spirituality, youth, cooperation, civic responsibility, national values.

### **Kirish**

Bugungi kunda mamlakat taraqqiyoti va jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi hisoblanadi. Har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli va vatanparvar shaxslarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Barkamol shaxsni shakllantirish uzoq davom etadigan murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo’lib, unda oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning o’rni beqiyosdir. Ushbu institutlarning o’zaro hamkorligi shaxsning ma’naviy, axloqiy, intellektual va ijtimoiy jihatdan kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila – barkamol shaxs tarbiyasining birlamchi maskani, shaxs kamoloti avvalo oilada boshlanadi. Oila insonning ilk tarbiya maktabi bo’lib, unda bolaning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va hayotiy qadriyatlari shakllanadi. Ota-onaning ma’naviy saviyasi, oiladagi muhit, o’zaro hurmat va mehr-muhabbat farzand tarbiyasiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Oilada shakllangan halollik, mas’uliyat, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi fazilatlar inson hayoti davomida uning ma’naviy tayanchi bo’lib xizmat qiladi. Shu bois mutafakkirlar oilani jamiyatning eng muhim bo’g’ini sifatida baholaganlar. Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sino asarlarida ham inson kamolotida oilaning o’rni alohida ta’kidlangan. Bugungi kunda oilada farzandlarga nafaqat bilim olishga intilish, balki milliy qadriyatlarga sadoqat, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini singdirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki sog’lom oilaviy muhit barkamol avlod tarbiyasining asosiy poydevorini tashkil etadi. Ta’lim muassasalari shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Maktab, akademik litsey, texnikum va oliy ta’lim muassasalari yoshlarning nafaqat bilim olishiga, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida yoshlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijtimoiy faollik, mas’uliyat va tashabbuskorlik kabi sifatlar rivojlanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar orqali yoshlarni global dunyo talablariga mos mutaxassis etib tayyorlash bilan bir qatorda, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ham muhim vazifa hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, kitobxonlik loyihalari, vatanparvarlik darslari, davra suhbatlari va turli tanlovlar yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda. Natijada yoshlar o’z oldiga aniq

maqsad qo'yadigan, jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan shaxs sifatida shakllanmoqda.

Jamiyat shaxs kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biridir. Mahalla, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va san'at muassasalari yoshlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, mahalla institutining yoshlar bilan ishlashdagi tajribasi alohida ahamiyatga ega. Mahalla orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni turli zararli oqimlardan himoya qilish, iste'dodlarini yuzaga chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri tobora ortib bormoqda. Shu sababli axborot makonida milliy manfaatlar va ma'naviy qadriyatlarga mos bo'lgan kontentlarni ko'paytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Barkamol shaxsni tarbiyalash faqat birgina oilaning yoki ta'lim muassasasining vazifasi emas. Bu jarayon barcha ijtimoiy institutlarning hamkorligini talab etadi. Oila, ta'lim va jamiyat o'rtasidagi uzviy hamkorlik shaxs tarbiyasining samaradorligini oshiradi.

Mazkur hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish;
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish;
- Huquqiy madaniyat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish;
- Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;
- Iste'dod va qobiliyatlarni rivojlantirish;
- Turli salbiy g'oyalar va tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash.

Agar ushbu uch institut faoliyati yagona maqsad asosida tashkil etilsa, yoshlar tarbiyasida yuqori natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Globallashtirish va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bugungi davrda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud. Internet tarmoqlaridagi zararli axborotlar, ommaviy madaniyat ta'siri, oilaviy nazoratning sustligi va ma'naviy bo'shliq ayrim yoshlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun: ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirish, mahalla va jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, yoshlar uchun ma'naviy-ma'rifiy loyihalarni kengaytirish, kitobxonlik va ilm-fanni targ'ib qilish zaruriy shartlar sifatidir.

Xulosa qilib aytganda, barkamol shaxsni shakllantirishda oila, ta'lim va jamiyat hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oila shaxs tarbiyasining

boshlang'ich maskani bo'lsa, ta'lim muassasalari uning intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi, jamiyat esa ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni yaratadi. Ushbu uch institutning uzviy hamkorligi natijasida yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, ijtimoiy faol va zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida oila, ta'lim va jamiyat hamkorligini yanada mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
11. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
12. Ibn Sino. Tadbiri manzil. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.
13. Musurmonova O. Oila ma'naviyati va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
14. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.